
30 MART - "XALQARO CHIQINDILARSIZ KUN" MUNOSABATI BILAN TOSHLOQ TUMANIDA TOZALIK TADBIRLARI BO'LIB O'TDI

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi qaroriga ko'ra, 30 mart butun dunyo bo'ylab "Xalqaro chiqindilarsiz kun" deb e'lon qilindi.

"Zero Waste" loyihasi orqali Turkiya butun dunyoni qiziqtirgan barcha ekologik va tabiatni muhofaza qilish loyihalarida yetakchi sifatida ajralib turadi. Loyiha isrofgarchilikning oldini olishga, resurslardan samaraliroq foydalanishga, sabablarini ko'rib chiqish orqali chiqindilar paydo bo'lishining oldini olishga yoki minimallashtirishga hamda chiqindilarni alohida yig'ish va qayta tiklashga qaratilgan.

Sana munosabati bilan tumanda tozalash tadbirlari o'tkazildi. Tadbir davomida qabriston va ziyoratgohlar, yo'l bo'ylari tozalanib, ariqlar qazildi. Shuningdek, ko'chat ekish, daraxtlarga shakl berish, oqlash ishlari amalga oshirildi.

Xususan, shu kunning o'zida 51 ta mahalla fuqarolar yig'inlari hududlaridan 2,8 tonnaga yaqin to'planib qolgan chiqindilarni tashish ishlari bajarildi.

2023-03-30 18:22:50